

CHAKANA BANK XIZMATLARINING TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI (ATB AGROBANK MISOLIDA)

Mamatqulov Sardorbek Abdikaxarovich

Bank mokiya akademiyasi tinglovchisi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chakana bank xizmati va uning tijorat banklarida samaradorlikka ta'siri haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Bank, ko'rsatkich, ustuvor yo'nalish, moliya tizimi, barqaror o'sish, Agrobank, bank xizmati.*

Mustaqilligimizning ilk davridan boshlab bank tizimida islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish Respublika hukumati olib borayotgan siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buni Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qator Farmonlar va Qarorlarda ko'rish mumkin. Buning natijasida bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi qat'iy xalqaro talablarga javob beradigan eng barqaror tizimlardan biridir va ayni paytda belgilangan qator ko'rsatkichlar bo'yicha mustahkam pozitsiyalarga ega.

Ma'lumki, banklar moliya tizimining ajralmas qismi bo'lib, bozor va ishlab chiqaruvchilar talablari bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat olib boradi. Ular jahon iqtisodiy hayotining markazida joylashgan bo'lib, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarning ehtiyojlariga xizmat ko'rsatish orqali sanoat va savdoni, qishloq xo'jaligi va aholini o'zaro bog'laydilar. Tijorat banklarining raqobatbardoshlikni ta'minlashida eng samarali yo'li mijozlarning unga bo'lgan ishonchini qozonish va ular uchun barcha qulayliklarni yaratish, shuningdek, xizmatlar turi, sifati va tezkorligini oshirish hisoblanadi. Banklar raqobatbardoshlikni ta'minlashi uchun zamonaviy bank xizmatlarini joriy etishga, yangi texnologiyalardan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezmoqdalar. Aholining turmush darajasi yaxshilanishi, zamonaviy bilimlarni egallashi natijasida ularning yangi moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talablari ortmoqda. Tijorat banklari xizmatlarning tezkorligi, sifati, to'g'riligini, xavfsizligi va ishonchliligi bank mijozlarining talabidir. Zamonaviy masofaviy bank xizmatlari ana shu talablarga javob bera oladi

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish oldida turgan asosiy vazafalardan biri bu bank xizmatlari sifatini oshirish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va ularni rivojlangan davlatlar banklari darajasiga yetkazishdan iborat. "2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da ham "bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investision loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish" vazifasi belgilab berilgan edi va tom ma'noda ularga erishildi.

Respublikamizda bank infratuzilmasining kengayib borishi banklar o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi hamda bank xizmat turlari sifati va ko'lamining oshishiga xizmat qilmoqda. Tijorat banklari yangi bank xizmatlarini rivojlantirish, mijozlarga taqdim etadigan xizmatlar turlarini ko'paytirish orqali o'z faoliyatini diversifikatsiya qilib borishi banklar tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalari, yangi bank mahsulotlari paydo bo'lishining asosiy omili, binobarin, bank xizmatlari bozori rivojlanishiga sharoit yaratish hisoblanadi. Bank xizmatlari bozorida raqobat muhitining to'liq shakllanmaganligi esa bank xizmatlarini rivojlanishiga ta'sir etadi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan chakana xizmatlarni takomillashtirish borasida dolzarb muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishning yo'llarini ishlab chiqishning zarurligi mavzusining dolzarbligi belgilaydi

Tijorat banklarida chakana xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish, ulargi xorij tajribasini joriy etish bilan bog'liq muammolar ko'plab iqtisodchi-olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Ikramova N.R., Trofimov D.V., Nikonorov V.V., Bekchanov M., Abduraxmanov R., Omonov A.A., Aliqoriev O. va boshqalar bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan ko'plab chakana xizmatlarning o'ziga xos jihatlari, ularning rivojlanishidagi mavjud muammolarni tadqiq etganlar. Xususan, A.S. Goncharuk tomonidan "Chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlanini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir" degan mualliflik ta'rifi shakllantirildi. Bank xizmatlarini yo'naltirish maqsadi va texnologiyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, «Bank chakana xizmatlari bujismaniy shaxslarning aniq bir bank xizmatlariga bo'lgan shaxsiy yoki oilaviy ehtiyoj, xoxish va talablarini qondirish uchun tijorat banklari tomonidan taklif etiladigan, tijorat faoliyatiga yo'naltirilmaydigan bank xizmatlari yig'indisidir»

Chakana xizmatlarga ixtisoslashgan «raqamli» banklar faoliyatini rivojlantirish va o'z o'rnini ushlab qolish maqsadida banklar Fintech startaplarini moliyalashtirmoqda yoki sotib olmoqda. Butun dunyoda kuzatilayotgan bu vaziyat yurtimiz banklariga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi shubhasiz. Efma va Infosys Finacle o'tkazgan so'rov va tadqiqotlarda banklar (74%) 2016-2017 yillarda innovasion loyihalarga investisiyalarni oldingi yillarga nisbatan ko'paytirganliklarini ta'kidlaganlar. 69% banklar o'zlarining innovasion banklarga aylanganliklarini ta'kidlashgan va 25% banklar o'z innovasion faoliyatlarini yuqori darajada, deb hisoblashgan. Banklarning 40% dan ortig'i startaplar bilan ishlamoqda va 30% banklar startaplarga sarmoya kiritganini ta'kidlagan.

Chakana bank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'siri muhimdir. Tijorat banklari, moliyaviy operatsiyalarni yuritish, kredit berish, hisob-kitob va boshqa xizmatlar yoki to'lov vositalarini taqdim etish bilan shug'ullanadilar. Chakana bank ham tadbirkorlik faoliyatiga yordam beradi, moliyaviy muammolar va loyihalarni mulkchilikka yechishning asosiy manbai sifatida xizmat qiladi. Bu tarz banklar, tadbirkorlar uchun kreditlarni olish, hisob-kitobni olib borish, valyuta operatsiyalarni amalga oshirish va boshqa moliyaviy xizmatlarni taqdim etishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, ular

mamlakatimizdagi iqtisodiy rivojlantirishni oshirishda ham o'z ahamiyatli rollarni o'ynaydilar.

Chakana xizmatlarda banklarning asosiy raqobatchilari mobil ilova to'lov tizimlari bo'lib, dunyo banklarining 86%i bu tahdid juda jiddiy ekanligini va bunda banklar oldida faqat ikki yo'l borligini, birinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari startaplari bilan hamkorlik qilish, ikkinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari tovar va xizmatlarini banklar tomonidan ishlab chiqish ekanligini ta'kidlashmoqda. Rivojlangan davlatlar banklari Fintechlarni tinimsiz kuzatib bormoqda. ING Group (Niderlandiya) rahbari Ralph Hamers ma'lum qilishicha, ING Group bozordagi talab va taklifni doim o'rganib boradi hamda 45 ta Fintechlar bilan to'lov menejmenti, tizimni rivojlantirish, mobillashtirish va kreditlashtirishda hamkorlik kiladi.

Agrobank O'zbekistonning moliyaviy tijorat banklari bilan birga ishlaydigan O'zbekiston Respublikasi bankidir. Agrobank, moliyaviy tadbirkorlar va fermerlar uchun kreditlarni taqdim etish, to'lov vositalarini taqdim etish, xususiy hisob-kitob xizmatlarini taklif qilish, valyuta operatsiyalarni amalga oshirish va boshqa moliyaviy xizmatlarni taqdim etish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, Agrobank, yirik sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi tadbirkorliklari va boshqa sektorlarga xizmat ko'rsatadi. Agrobank xizmatlarining samaradorligi, moliyaviy sohalardagi iqtisodiy rivojlanishni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tijorat banklar, masalan ATB Agrobank, moliyaviy tijorat mamlakatimizdagi ahamiyatli institutlardir. ATB Agrobank xizmatlarining tijorat banklari faoliyati samaradorligiga ta'siri juda katta. Ushbu bank, moliyaviy bozorlarda kredit berish, valyuta operatsiyalari, hisob-kitob va boshqa moliyaviy hududlarda xizmatlar ko'rsatadi. Bu xizmatlar orqali tadbirkorlar, korxonalarining iqtisodiy faoliyati o'zaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlashadi. ATB Agrobankning samaradorlikligi, moliyaviy sohalardagi islohotlarni kushaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakatimizning iqtisodiyotini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda bank tizimida chakana mijozlarga ko'rsatiladigan bank xizmatlari salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda. Shunga qaramay, G'arb mamlakatlarida keng foydalaniladigan bank kredit kartalari bilan, qimmatli qog'ozlar bilan, "Internet-banking" orqali jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan bank xizmatlari ko'lamini sust rivojlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "2022 — 2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
2. "2022 — 2026-YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING INNOVATSION RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son.
3. Saidqulov Murod Hayitboy o'g'li. Elektron bank xizmatlarini rivojlantirish va bank ishini avtomatlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Magistr dissertatsiyasi. 2021 yil. 24-66-77- betlar.
4. T.M.Karaliyev, O.B. Sattorov, I.F.Sayfiddinov “Bank faoliyati tahlili”, o’quv qo’llanma.
5. Гончарук С. А. Институционалше аспект развитиуа сегмента розничшх банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. унт им. К.Л. Хетагурова - Шахті, 2021. - 183 с
6. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Rasmiy sayti